



YANGI O'ZBEKISTONDA HARBIY XIZMATNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Yuriy Sayfieovich Pulatov

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti kafedrası professor, yuridik fanlari
doktori, professor*

**Maxsatullo Ismatovich
Maxsadorov**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar
doktori (DSc), dotsent*

Annotatsiya

mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda harbiy xizmatning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlili asosida uning huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:

konstitutsiyaviy majburiyat; harbiy xizmatning asoslari; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish

ВОИНСКОЙ СЛУЖБЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА ОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ

Юрий Сайфиевич Пулатов,
профессор кафедры Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан, доктор
юридических наук, профессор

Максатов Максатулло Исматович,
профессор Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, доктор юридических наук (DSc), доцент

Аннотация: в работе с учетом анализа конституционно-правовых основ воинской службы в Новом Узбекистане, высказана необходимость повышения ее эффективности правового регулирования.

Ключевые слова: конституционная обязанность; основы воинской службы; защите Республики Узбекистан

CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF MILITARY SERVICE IN THE NEW UZBEKISTAN

Yuri Sayfieovich Pulatov

Professor of the Department of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

Maksadov Maksatullo Ismatovich,

Professor at the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (DSc), Associate Professor

Abstract: based on an analysis of the constitutional and legal foundations of military service in the New Uzbekistan, this paper substantiates the need to enhance the effectiveness of its legal regulation.

Keywords: constitutional duty; foundations of military service; defence of the Republic of Uzbekistan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini, shu jumladan harbiy xizmatni kompleks tarzda tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat mavjud emas. Shu bilan birga, huquqshunos olimlar, harbiy-huquqiy amaliyotchilar hamda harbiy sohaning boshqa mutaxassislari tomonidan bunday hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish zarurligi doimiy ravishda ta'kidlab kelinmoqda, masalan, Harbiy kodeks, Harbiy xizmat to'g'risidagi kodeks va boshqalar.

Harbiy xizmatning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari mustaqil O'zbekiston Respublikasining eng muhim hujjatlarida belgilab berilgan bo'lib, ularga ko'ra O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi hisoblanadi. "O'zbekiston SSR suvereniteti to'g'risida"gi Deklaratsiya hamda 1991-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonotdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi shu yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasining "Davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Qonunini № 336-XII raqami bilan qabul qildi [1].

Mazkur hujjat davlatimizda harbiy qurilishning konstitutsiyaviy asoslarini rivojlantirish, suveren O'zbekistonning harbiy qonunchiligini shakllantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. Natijada 1992-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi asosiy Qonuni № 641-XII qabul qilindi [2], mazkur Qonun 2001-yil 11-mayda yangi tahrirda qabul qilindi [3]. Shuningdek, 1992-yilda O'zbekistonda yana ikki muhim qonun qabul qilindi: 3-iyuldagi № 646-XII-son "Muqobil xizmat to'g'risida"gi Qonun [4] hamda 3-iyuldagi № 644-XII-son "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonun [5]. Keyinchalik ushbu ikki qonun o'z kuchini yo'qotib, 2002-yil 12-dekabrda ularning asosida O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda № 436-II bilan qabul qilindi [6].

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida harbiy majburiyat Konstitutsiya bilan belgilangan bo'lib, u davlatning samarali himoyasini ta'minlovchi tizimni yaratish va uning uzluksiz faoliyatini ta'minlash maqsadida fuqarolarning sharaflari burchi sifatida joriy etilgan. Fuqarolar harbiy xizmatni o'tash orqali davlatning qurolli mudofaasiga

tayyor bo'lishlari lozim. Harbiy majburiyatdan tashqari, fuqarolar O'zbekiston Respublikasini himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaviy burchini ixtiyoriy ravishda shartnoma asosida harbiy xizmatga kirish yoki muqobil xizmatni o'tash orqali ham ado etish huquqiga egadirlar. Harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy majburiyati bo'lib, u chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini huquqiy jihatdan rivojlantirishning progressiv yo'li, xususan O'zbekiston Respublikasini himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatni bajarish sohasi davlatning asosiy tizimlashtiruvchi huquqiy hujjati — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. “Vatan himoyasi” O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari uchun majburiyat va muqaddas burch sifatida 2023-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida belgilangan bo'lib, unda: “Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar”, deb ko'rsatilgan [7]. Ya'ni, harbiy xizmatni o'tash tartibi, harbiy xizmatdan ozod etish asoslari va shartlari yoki uni muqobil xizmat bilan almashtirish qonun bilan belgilanadi.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar keyinchalik mudofaa to'g'risidagi qonunchilikda, harbiy qurilish va Qurolli Kuchlarni boshqarish masalalariga oid normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek harbiy xizmatchilarning xizmatini tartibga soluvchi hujjatlarda yanada rivojlantirildi [8].

O'zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, harbiy xizmat davlat xizmatining alohida turi sifatida e'tirof etilib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) harbiy xizmatni o'tash; 2) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat; 3) harbiy yig'inlar yoki 4) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari yoxud boshqa qo'shinlar va harbiy tuzilmalar zaxirasida bo'lgan davrda maxsus yig'inlarda ishtirok etish.

Xizmat mohiyati masalasiga to'xtalar ekanmiz, ushbu tushuncha nafaqat davlat faoliyati, balki nodavlat tashkilotlar faoliyati (masalan, jamoat birlashmalari, diniy muassasalar) bilan ham bog'liqligini ta'kidlash lozim.

Davlat qaysi hollarda xizmat davlat xizmati hisoblanishini va qaysi hollarda u nodavlat xususiyatga ega ekanligini tegishli qonunchilik orqali belgilab beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy harbiy majburiyatni bajarish hamda shartnoma asosida Qurolli Kuchlar va boshqa harbiy tuzilmalarda xizmat o'tash davlat xizmatining alohida turi hisoblanadi [9].

Davlat xizmati jumlasiga harbiy xizmat, ichki ishlar organlaridagi xizmat, bojxona organlaridagi xizmat, diplomatik xizmat hamda chegara bo'linmalaridagi davlat xizmati kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktabrdagi № UP-1571-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomiga muvofiq, harbiy xizmat — O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy harbiy majburiyatni bajarish hamda shartnoma asosida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarda xizmat o'tash bo'yicha davlat xizmatining alohida turi hisoblanadi (5-modda).

Harbiy xizmat quyidagilarga bo'linadi: 1) chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat va 2) shartnoma asosidagi harbiy xizmat. Bundan tashqari, qonunchilik harbiy xizmatning quyidagi turlarini ham nazarda tutadi: zaxirada xizmat; harbiy yig'inlar; maxsus yig'inlar.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy tajribani o'rganish asosida Qurolli Kuchlarda harbiy majburiyatni bajarishning alohida shakli sifatida zaxirada xizmat institutini joriy etdi.

Hozirgi vaqtda harbiy xizmatchining maqomiga qarab harbiy xizmatning olti turi ajratiladi: 1) askar va serjantlarning muddatli harbiy xizmati; 2) askar va serjantlarning shartnoma asosidagi harbiy xizmati; 3) harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining harbiy xizmati; 4) ofitserlarning shartnoma asosidagi harbiy xizmati; 5) ofitserlarning chaqiruv bo'yicha harbiy xizmati.

Harbiy xizmat ko'plab davlatlarning suvereniteti asosini tashkil etadi. Ayrim davlatlar uni fuqarolik bilan bevosita bog'lab, konstitutsiyalarida harbiy xizmatga alohida maqom beradilar va uni fuqarolarning muqaddas hamda sharaflı burchlari sirasiga kiritadilar. Shu bois harbiy xizmat muayyan davlatning suverenitetini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Harbiy majburiyatni xorijiy davlatda bajarish esa ushbu majburiyat yuklatilgan shaxslar fuqarosi bo'lgan davlatning suverenitetiga zid hisoblanadi [10].

Eslatib o'tish joizki, zamonaviy harbiy xizmat o'ziga xos faoliyat turi bo'lib, quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: faqat davlat tomonidan tashkil etiladigan va qurolli kuchlar, armiya, qo'shinlar deb ataluvchi maxsus tashkilotlarning mavjudligi; armiyaga chaqirish tartibi va shartlari, harbiy xizmatni o'tash hamda tugatish qoidalarining davlat tomonidan belgilanishi; harbiy xizmatning harbiy harakatlarni olib borish, Vatanni himoya qilishni faqat harbiy harakatlar orqali, mudofaa vositalaridan foydalanib, qurolli himoya va qarshilik ko'rsatish orqali amalga oshirishga yo'naltirilganligi; harbiy tashkilotning davlat tomonidan ichki qurilishi, boshqaruv tartibining belgilanishi hamda harbiy xizmatchilarni farqlash imkonini beruvchi maxsus farqlovchi belgilar bilan ta'minlangan harbiy boshliqlarning tayinlanishi.

O'zbekiston Respublikasida harbiy majburiyat — fuqarolarning O'zbekiston Respublikasini himoya qilishni ta'minlovchi chora-tadbirlar tizimini yaratish va uning uzluksiz faoliyatini ta'minlash, fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi hamda ularni O'zbekiston Respublikasini qurolli himoya qilishga tayyorlash maqsadida belgilangan majburiyatidir. Harbiy majburiyatdan tashqari, fuqarolar O'zbekiston Respublikasini himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaviy burchini shartnoma asosida harbiy xizmatga ixtiyoriy ravishda kirish orqali ham bajarish huquqiga ega. Harbiy majburiyat quyidagilarni o'z ichiga oladi: harbiy hisobga olish; harbiy xizmatga majburiy tayyorgarlik; harbiy xizmatga chaqirish; chaqiruv bo'yicha harbiy xizmatni o'tash; zaxira xizmatiga chaqirish va zaxirada xizmatni o'tash; zaxirada turish; harbiy va maxsus yig'inlarga chaqirish hamda ularni o'tash.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, Vatan himoyasi bo'yicha burchni ixtiyoriy tartibda bajarish qonun bilan mustahkamlangan harbiy majburiyatdan farq qiladi, chunki harbiy majburiyat davlat fuqarosining yuridik

majburiyati hisoblanadi. Harbiy majburiyat maxsus subyekt — harbiy xizmatchi tomonidan bajariladi.

Harbiy xizmatchilar muayyan ijtimoiy zarur funksiyalarni amalga oshiruvchi hamda qonunchilikda harbiy xizmat nazarda tutilgan muassasalar, davlat organlari va tashkilotlarda vazifalarni bajaruvchi alohida huquq subyektlaridan iborat ijtimoiy guruhni tashkil etadi. Harbiy xizmatchilar mazkur organlar va tashkilotlar funksiyalarining bajarilishini ta'minlovchi xodimlar sifatida namoyon bo'ladi.

Harbiy xizmatchining yuridik (huquqiy) holati o'z tarkibiga ko'ra murakkab institut bo'lib, u nafaqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va konstitutsiyaviy huquqqa oid hujjatlar normalarini, balki harbiy qonunchilikning kompleks tarmoq xususiyatini inobatga olgan holda boshqa huquq tarmoqlariga oid normalarni ham o'z ichiga oladi.

Shaxsning huquqiy holati uning huquqiy maqomi bilan belgilanadi. Huquqiy maqom — subyektning huquqiy munosabatlardagi "huquqiy pozitsiyasi" bo'lib, huquqiy holat rivojlanishining muayyan darajasini ifodalaydi; unga erishish esa yangi yuridik holatlarning vujudga kelishi va o'zgarishi orqali amalga oshadi.

Huquqiy holat tushunchasi maqomga nisbatan kengroq bo'lib, u subyekt tomonidan muayyan vaqtga kelib "erishilgan" huquqiy maqomlar majmuasini ham qamrab oladi. Huquqiy holat subyektning huquqiy maqomga qaraganda aniqroq va shu bilan birga dinamikroq tavsiflaydi, huquqiy maqom esa o'z tabiatiga ko'ra barqarorroqdir.

O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq belgilanadi. U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan harbiy xizmatchilarning huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari va javobgarligi majmui sifatida ifodalanadi.

Harbiy xizmatchining huquqiy maqomi shartnoma asosida harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boshqa qo'shinlar va harbiy tuzilmalar uchun ofitser kadrlarni tayyorlovchi harbiy o'quv yurtlari hamda boshqa ta'lim muassasalarining tinglovchilari va kursantlariga; chaqiruv bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga; zaxirada xizmatni o'tayotgan fuqarolarga — rezervchilarni tayyorlash dasturlarida belgilangan mashg'ulotlar yoki o'quv yig'inlari davrida; harbiy majburiyatga ega shaxslarga — harbiy yoki maxsus yig'inlarda bo'lgan paytda tatbiq etiladi.

Harbiy xizmatchilarning erkinliklari O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlangan. Harbiy xizmatchilarning majburiyatlari maxsus va lavozim majburiyatlari, shuningdek umumiy majburiyatlarga bo'linadi.

Harbiy xizmatning o'ziga xos jihatlari harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasini qurolli himoya qilishga tayyorgarlik ko'rish va uni qurolli yo'l bilan himoya qilish bo'yicha majburiyatlar yuklatilishi bilan belgilanadi. Bu majburiyatlar har qanday sharoitda, jumladan hayot va sog'liq uchun yuqori xavf mavjud bo'lgan

vaziyatlarda ham belgilangan vazifalarni so‘zsiz bajarish zarurati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklaridagi cheklovlar davlat tomonidan ularga qo‘shimcha ijtimoiy imtiyozlar, huquqlar va kafolatlar berilishi orqali kompensatsiya qilinadi.

Bizning fikrimizcha, harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar — bu harbiy huquq normalari bilan belgilangan holatlar bo‘lib, ularning mavjudligi yoki yuzaga kelishi harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatni davom ettira olmasligiga va ishdan bo‘shatilishiga, fuqarolarning esa harbiy xizmatga qabul qilinmasligiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq taqiqlar amaldagi qonunchilikda belgilangan, harbiy xizmat vazifalarini bajarishga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni aniqlovchi huquqiy normalar bo‘lib, ular harbiy xizmatchilar tomonidan mudofaa va davlat xavfsizligi sohasidagi funksiyalarni samarali va sifatli amalga oshirish, shuningdek korrupsion holatlar va xizmat mavqeidan boshqa suiiste‘molliklarning oldini olish maqsadida joriy etilgan. Ushbu taqiqlarning buzilishi harbiy xizmatchilarning yuridik javobgarligiga, jumladan harbiy-xizmat munosabatlarining muddatidan oldin tugatilishiga asos bo‘lishi mumkin.

“Harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar” tushunchasini “harbiy xizmatchilarning huquqiy cheklovlari” tushunchasidan farqlash lozim, chunki huquqiy cheklovlar — amaldagi qonunchilik bilan belgilangan, harbiy xizmatni tashkil etish va uning faoliyat yuritish vazifalari hamda tamoyillaridan kelib chiqadigan, harbiy xizmatchilar tomonidan mudofaa va davlat xavfsizligi sohasidagi funksiyalarni lozim darajada bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan huquqlarni cheklovchi normalar tizimini anglatadi. Ushbu normalarga rioya etilmasligi huquqiy oqibatlariga olib keladi. Huquqiy cheklovlar tizimiga quyidagilar kiradi: taqiqlar; yuridik faktlar bilan bog‘liq cheklovlar; majburiyatlar; yuridik javobgarlik.

Shuni ta‘kidlash lozimki, harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomi nafaqat harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonunchilik, balki, masalan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunlar bilan ham belgilangan ayrim taqiqlar va cheklovlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Bu holat harbiy xizmat davlat xizmatining turlaridan biri ekanligi bilan izohlanadi. Shu bois qonun chiqaruvchi harbiy xizmatchilarga nisbatan ham davlat fuqarolik xizmatchilari uchun ilgari belgilangan (ayrim xususiyatlarni inobatga olgan holda) xizmat xulq-atvoriga doir korrupsiyaga qarshi talablar, taqiqlar va cheklovlarni tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb topgan.

Harbiy xizmatchilar o‘zlarining noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq intizomiy, moddiy, fuqarolik-huquqiy, ma‘muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Konstitutsiyaviy-huquqiy maqom tuzilmasining eng muhim tarkibiy qismi davlat kafolatlari bo‘lib, ular Konstitutsiya bilan barcha fuqarolar uchun, shuningdek qonunlar bilan harbiy xizmatchilarning turli toifalari uchun alohida belgilangan. Harbiy xizmatchilar uchun egallab turgan harbiy lavozimlari, harbiy unvonlari, malakasi, harbiy xizmat davomiyligi va sharoitlariga muvofiq pul ta‘minoti, moddiy

va boshqa turdagi ta'minotni o'z ichiga olgan huquqiy va ijtimoiy himoya choralarning yagona tizimi o'rnatiladi.

Harbiy xizmatchilarni, harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolarni va ularning oila a'zolarini huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish respublika davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat organlari va tashkilotlar zimmasiga ularning vakolatlari doirasida yuklatiladi, shuningdek bu komandirlar (boshliqlar)ning ham majburiyati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmat — bu davlat tomonidan qonun asosida belgilangan, maxsus tashkil etilgan davlat tuzilmalarida (qo'shinlar, harbiy tuzilmalar) va organlarda amalga oshiriladigan, mudofaa va harbiy xavfsizlik sohasidagi vazifalarni o'ziga xos (harbiy) usullar orqali hal etishga qaratilgan hamda Vatanni qurolli himoya qilishga tayyorgarlik ko'rish maqsadini ko'zlovchi inson faoliyatining alohida turidir.

O'zbekiston Respublikasida harbiy majburiyat — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasini himoya qilishni ta'minlovchi chora-tadbirlar tizimini yaratish va uning uzluksiz faoliyatini ta'minlash, fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi hamda ularni O'zbekiston Respublikasini qurolli himoya qilishga tayyorlash maqsadida belgilangan majburiyatidir.

Amaldagi huquqiy normalarni huquqiy tahlil qilish natijasida “harbiy majburiyat” va “harbiy xizmat” tushunchalari o'zaro “butun va qism” nisbatida ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining majburiyati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasini himoya qilishni ta'minlovchi chora-tadbirlar tizimini yaratish va uning doimiy faoliyatini ta'minlash, fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi hamda ularni mamlakatni qurolli himoya qilishga tayyorlash maqsadida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomiga xos jihatlarning uning tuzilmasida namoyon bo'lib, ushbu tuzilmaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga majburiy egalik;
2. umumiy va maxsus huquqiy subyektivlikning mavjudligi bo'lib, unda konstitutsiyaviy huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarning markaziy o'rinni egallaydi hamda barcha boshqa elementlar aynan ular atrofida shakllanadi;
3. harbiy xizmatchilarning qonunchilikni buzganligi uchun javobgarligi;
4. harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq cheklolar va taqiqlar;
5. ularni amalga oshirish shartlari va vositalari sifatida davlat kafolatlarining (siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va tashkiliy) mavjudligi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1991-yil, № 11, 246-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1992-yil, № 10, 398-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001-yil, № 5, 80-modda (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1992-yil, № 11, 434-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1992-yil, № 10, 401-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2002-yil, № 12, 217-modda (keyingi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
7. <https://www.lex.uz>
8. Qarang, masalan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”.
// <https://www.prezident.uz>
9. <https://www.google.com/search>
10. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bunday harakatlar uchun 154¹-modda bilan javobgarlik nazarda tutilgan.